

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

O‘ZBEK TILINING MAVQEYI VA UNI ASRASH BO‘YICHA DOLZARB MASALALAR

Shaxriyor G‘aybuloyev To‘lqin o‘g‘li

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti

Jizzax filiali “Filologiya va tillarni o‘qitish: ingliz tili” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: O‘zMu Jizzax filiali katta

o‘qituvchisi Sirojiddin Saitov Abduvaliyevich

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilining bugungi mavqeyi, milliy boylik sifatida uning ahamiyati va zamonaviy davrda asrash bo‘yicha dolzarb masalalar ko‘rib chiqiladi. Tilning rivojlanishi va saqlanishi uchun zarur bo‘lgan chora-tadbirlar tahlil qilinib, muammo va yechimlar taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: ona tili, milly boylik, til rivoji, globalizatsiya, chet tillari, o‘zbek tilini asrash, til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi.

O‘zbek tili xalqimizning qadimiy madaniyati va boy tarixining ajralmas qismi sifatida o‘zining alohida mavqeiga ega. Bu til ming yillar davomida shakllangan bo‘lib, xalqimizning urf-odatlarini, qadriyatlarini va dunyoqarashini aks ettiradi. Ammo bugungi kunda globallashuv jarayoni va chet tillarining ta’siri milliy tilimizning mavjudligiga jiddiy tahdid solmoqda. Til nafaqat aloqa vositasi, balki millatning o‘zligini saqlab qolish vositasidir. O‘zbek tilini rivojlantirish va uni avlodlarga yetkazish uchun ta’lim tizimi, ommaviy axborot vositalari hamda davlat siyosati muhim o‘rin tutadi. Ta’lim muassasalarida o‘zbek tiliga bo‘lgan e’tibor oshirilishi va ilmiy adabiyotlarni o‘zbek tilida yaratilishi bu sohadagi asosiy ustuvorliklardan biridir.

Hozirgi globallashuv jarayoni turli tillarning o‘zaro ta’siriga sabab bo‘lmoqda. Chet tillarining ta’siri natijasida o‘zbek tili bir qator qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bu jarayonda ona tilimizning boyligi va o‘ziga xosligini saqlab qolish dolzarb masalalardan biriga aylangan. Ayniqsa ingliz tilining keng tarqalishi o‘zbek tiliga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bilamizki, hozirda davlatimizda ingliz tiliga ehtiyoj katta. Yoshlardan tortib, to yoshi kattalar doirasidan olib qaraydigan bo‘lsak, bu tilga qiziqayotganlar kam emas albatta, ya’ni, qaysidir soha majburiyati tufayli yoki shunchaki qiziqish tufayli. To‘g‘ri, bu ijobiy holat, ya’ni, ular o‘zlari ko‘zlagan qaysidir marraga yetishishga yoki o‘zlarini yuksaltirishga harakat qilishyapti, lekin yoshlar orasida ommalashib borayotgan bir narsani inobatga olmaslik ona tilimizga nisbatan katta xurmatsizlik bo‘ladi. Aynan manashu “mudhish hodisa” ko‘proq so‘zlashuv uslubida uchramoqda va bu nutq jarayoni vaqtidagi o‘zbek tilining izohli

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

lug‘atidan o‘rin egallamagan so‘zlardan foydalanishdir. Bu hodisa nafaqat ingliz tili, bali rus tili hamda boshqa tillar tufayli ham kuzatilmoqda. Bu o‘rinda shuni ta’kidlab o‘tish joizki, Erkin Bozor aytganidek: “Til bilish yaxshi, ammo aralashtirganing zamon, xuddi suv bilam qaymoq chatishgandek bo‘ladi”. Yozmoqchimanki, suv aralashtirilgan qaymoqning qadri qanchalik tushsa, boshqa tillar aralashgan ona tilimizning mavqeyi ham shunchalik pasayib bormoqda. So‘z mulkining sultoni Alisher Navoiy o‘z davrida qariyb “o‘lik” tillar safidan joy olgan eski turkiy tilga “jon” ato etdi. XX asr boshlarida ma’rifatparvar ziyolilar Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiyilar o‘zbek tilini takomillashtirish maqsadida darsliklar, maqolalar yozishdi, o‘sha davrda ijtimoiy buyurtma bo‘lgan xalq savodxonligini ko‘tarish maqsadida tahsinga sazovor faoliyat olib borishdi. Bu faoliyatlari yo‘lida ular hattoki o‘z jonlaridan voz kechishdi. Bugunchi, bugungi kunda mana shu beminnat va bebaho say-harakatlarga nisbatan qanchalik to‘g‘ri harakat qilyapmiz? Biz nimada xato qildik? Nima uchun o‘zbek tili mavqeini avaylash qiyin bo‘ldi? Bunga O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi moddalaridagi “o‘zbekona bag‘rikenglik” sabab bo‘lmadimi?. Mana shu kabi savollar guvohnomasida va shaxsni tasdiqlovchi hujjatida millati o‘zbek deb yozilgan har bir fuqaroni o‘ylantirishi kerak.

Bugun o‘zbek tilining bor bo‘y-bastini, boyligini ko‘rsatish va kelajak avlodning undan to‘la bahramand bo‘lishi uchun izohli va imlo lug‘atlari, umumiy o‘rta ta’lim o‘quvchilari uchun alohida turli nomlarda lug‘atlarning va barcha soha vakillari uchun o‘zbek tilining onomastik lug‘atlarini yaratishga xizmat qiladigan tadqiqotlarni yaratilishi, qo‘shni mamlakatlar va qardosh turkiy xalqlar tillari bilan qiyoslash hamda lug‘atlar bilan ishlash imkoniyatini yuzaga chiqarish va nutq madaniyati bilan bog‘liq muammolarga alohida e’tibor qaratishi, Vazirlik va idoralar rahbarlari hamda xodimlarining “Davlat tilida ish yuritish asoslari” bo‘yicha malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimi joriy etilishi, respublika tilshunos olimlari tomonidan fundamental fanlar, zamonaviy axborot va kommunikasiya texnologiyalari, sanoat, bank-moliya tizimi, diplomatiya, tibbiyot, qishloq xo‘jaligi, harbiy va shu kabi sohalarda o‘zbek tilining qo‘llanish doirasini kengaytirishga doir tavsiya va ko‘rsatmalar ishlab chiqilishi, zamonaviy darsliklar, etimologik va qiyosiy lug‘atlar nashr etishga, atamalarning elektron lug‘ati va mobil ilovalarini yaratish ishlariga ahamiyat qaratilayotganligi tilimizga bo‘lgan ehtiromning yorqin namunasi sanaladi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, biz xalqimizning taqdiri, ertangi kuni haqida o‘ylar ekanmiz, eng avvalo, millatimizning asl fazilatlarini, go‘zal urf-odatlarimiz, betakror san’atimiz va adabiyotimizni, ona tilimizni ko‘z qorachig‘iday saqlashimiz zarur.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Aytish mumkinki, ma’naviyati yuksak, milliy qadriyatlariga sodiq shaxsni kamol toptirishning muhim vositasi sifatida lug‘atlar ham tan olinadi. Gyugo ta’biri bilan aytganda, har bir xonadonning haqiqiy xazinasini bu lug‘atdir. Aytish mumkinki, elektron lug‘atlargina leksemaning butun mohiyatini tezkorlik bilan kitobxonga yetkazish imkoniyatini beradi. Zero, soha lingvistikasiga kirishish jamiyat taraqqiyoti bilan amaliy bog‘liq.

Milliy g‘ururimiz bo‘lmish ona tilimizga shu kabi qanchadan qancha yuksaltirish maqsadidagi e’tibor berilayotgan bir vaqtning o‘zida, afsuski, unga nisbatan ko‘rsatilayotgan “xiyonat”lar ham bir necha xilni tashkil etmoqda. Yana bir misol tariqasida shuni ko‘rsatishim mumkin: shahar ko‘chalari bo‘ylab yurarkansiz, ba’zan o‘zingizni qaysidir chet davlatdagidek his qilgan vaqtlaringiz ham bo‘ladi. Bu bilan ommaviy madaniyatni ta’siri, yevropacha kiyingan yurtdoshlarimiz-u, xorijiy mehmonlarni nazarda tutayotganim yo‘q, ko‘cha bo‘ylab rus, ingliz va boshqa tillardagi yorliqlar, havolalar, e’lon va shiorlarga e’tibor qaratmoqchiman. Bu yo‘llar orqali yurarkansiz, ko‘plab tadbirkorlik obyektlari, ovqatlanish va savdo shoxobchalari, maishiy va ishlab chiqarish obyektlarining nomlari chet tilida nomlanganligiga ko‘zingiz tushadi. Masalan: «DISCOSMETIKS», «MISSKAMILLA SHOP», «KIDSS BOTUQUE», «BRANDELITE», «GUNESS», «AISHA SHOP», «NAELOFAR», «LA MIRANDA», «BIG TRAVEL», «DIVANI.UZ». Juda-juda ko‘p nomlar xorijiy tillarda talqin qilingan, o‘zbek tilidagilarni esa uchratish mushkul. Eng yomoni, bugun so‘zlashganda xorijiy so‘zlar, varvarizm, jargonlar bilan so‘zlashish odatga aylangan bir paytda hech bo‘lmasa tilimiz sofligini yozuvlarda asrash kerak emasmi? Ona tilimiz sofligini asrash, yoshlar o‘rtasida ommalashtirish borasida ko‘plab tashabbuslar, qator loyihalarni amalga oshirilmoqda, bu haqida maqolalar chop etib kelinmoqda, xullas, o‘zbek tili rivoji doimiy e’tiborda, lekin bular... To‘g‘ri yurtimiz rivojlanmoqda, chet tilidagi yozuvlar esa sayyohlarga qo‘l keladi dersiz, ammo bu holat millat g‘ururi bo‘lgan ona-tilimizning o‘z yurtida qadsizlangani emasmi?

Bulardan tashqari yana bir ko‘z yumib bo‘lmaydigan yomon illat borki, u ham bevosita yoshlar bilan chambarchas bog‘liq. Bugungi kunda aksariyat kishilar, ayniqsa, yoshlar ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanadi. Tarmoqlardagi yozishmalarga, SMS xabarlariga e’tibor bersak, xunuk manzaralarning guvohiga aylanamiz. Ya’ni, lotin yozuvida “sh” o‘rniga “w”, “ch” o‘rniga “4”, “o” o‘rniga “6” kabi almashtirishlar, juda ko‘p imloviy xatoliklar bilan yozish holatlari ona tilini hurmat qiladigan har qanday kishining dilini xira qiladi. Agarda bu kabi holatlarga hozir, ayni damdan kurashilmasa, to‘g‘ri tushuntirilmasa, millat kelajagi xavf ostida

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

qoladi. Chunki yosh avlod xatoliklarni ko‘rib, shunday bo‘lar ekan degan, xulosa bilan o‘shishi mumkin.

Xulosa o‘rnida aytganda, til millatning ma’naviy-ruhiy boyligi, mulki ekan, uni e’zozlash, yuksalishi, sofliqi, boyligi yo‘lida kurashish, milliy qadriyat darajasiga ko‘tarish barchamizning oliy burchimizdir. O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini yanada oshirish haqida bosh qotirishimiz, bu yo‘lda sobitqadamlik bilan amaliy ishlar qilishimiz lozim. O‘zimiz ajdodlarimizdan meros bo‘lib kelgan ona tilimizni asramas ekanmiz, millatimiz va ma’naviyatimiz kelajagini ulkan xavf ostida qoldiramiz. Ona tiliga hurmat ko‘rsatish, unga e’tiborli bo‘lish orqali millatimizning kelajagiga e’tibor qilgan bo‘lamiz. Zotan, o‘zbek tili – bu bizning boyligimiz, ornomusimiz, sha’nimiz. Demak, uni, eng avvalo, o‘zimiz asrashimiz va hurmat qilishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Otamirzayeva S., Yusupova M. O'zbek tili. - T.: 2002.
2. Qurbonova M. Abdurauf Fitrat va o'zbek tilshunosligi. - T.: «Universitet», 1997.
3. To‘ychiboyev B. O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari. - T.: «O'qituvchi», 1996.
4. Yenikeyev Radik. Til haqidagi qonunlar tarixiga oid // «Til va adabiyot ta'limi» jurnali, 1997, № 2, 88—90- b.
5. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)
6. <https://uza.uz/oz/posts/prezident-shavkat-mirziyoyevning-o-zbek-tiliga-davlat-tili-m-21-10-2019>
7. https://uz.wikipedia.org/wiki/O'zbek_tili